



O'PKANING OBSTRUKTIV KASALLIGI BILAN YURAK GEMODINAMIKASI KO'RSATKICHLARI ORASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIGI

Akramova Shaxnoza Rustamovna

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy amaliy markazi,

Buxoro filiali, Buxoro sh. O'zbekiston

Jahon sog'lijni saqlash tashkilotining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining qariyb 600 millionga yaqini O'SOK bilan hastalanganligi aniqlangan. Ushbu kasallik va uning oqibatlari hisobiga yuzaga kelgan o'lim xolati esa yillar davomida oshib borishi kuzatilmoxda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar aholisi orasidagi umumiyligi o'lim xolatining taxminan 40 % ushbu kasallik oqibatida yuzaga kelmoqda. Gipervolemiya, giperkapniya va gipoksemiya hisobiga rivojlanib, qon zardobida aldosteron miqdorini oshishi xamda organizmda natriy hamda suvni ortiqcha miqdorda ushlanib qolishiga olib keladi. Bu esa qonning daqiqalik hajmi ko'payishi va uning reologik hususiyatini buzilishi, ikkilamchi politsitemiya, kukrak ichi bosimi oshishi, nafas mushaklari faoliyati buzilishi bilan birgalikda O'G rivojlanishiga sabab bo'ladi

Maqsad: O'SOK o'pka gipertenziyasi bilan kechgan bemorlarda tashqi nafas faoliyatining asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblangan Tiffno indeksi bilan yurak gemodinamikasi ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'liqlik va davolash samaradorligini solishtirma o'rganishdan iborat.

Material va usul: Buxoro viloyat ko'p tarmoqli shifoxonasida O'SOK aralash tipi o'pka gipertenziyasi bilan kechgan va shifoxona sharoitida davolanayotgan 87 nafar bemorlar tadqiqot manbaasi sifatida olindi. Ularning klinik funksional tekshiruvlari va obektiv ko'rik umum qabul qilingan laborator-asbobiyl tekshirishlar



oxirgi xalqaro dasturga mos keluvchi ko‘rsatmalarga asosan uchta guruhga ya’ni II va III funksional sinfi mavjud bemorlarga ajratildi. Ushbu guruhlar o‘z navbatida tavsiya etilgan muolajalardan kelib chiqib har biri 20 tadan bo‘lgan ikkita kichik guruhlarga ajratildi. Birinchi kichik guruh bemorlari ularning umumiy holati hamda laborator funksional ko‘rsatkichlardan kelib chiqib tavsiya etilgan kompleks davo negizida bozentan 62,5 mg bir kunda 2 maxal va eplerenon 25 mg bir kunda bir marta ertalab qabul qildilar. Ikkinci kichik guruh bemorlari ularning umumiy holati hamda laborator funksional ko‘rsatkichlardan kelib chiqib tavsiya etilgan kompleks davosi negizida seldinafil 25 mg qabul qildilar.

Tadqiqot natijalari: O‘SOK II og‘irlilik darajasi o‘pka gipertenziysi bilan kechgan bemorlarda Tiffno indeksi bilan O‘ASK va o‘pka arteriyasi ichki bosimi o‘rtasida mos ravishda $r = -0,3$; $P < 0,05$ va $r = -0,4$; $P < 0,005$ manfiy korrelyatsion bog‘liqlik qayd etildi. Kasallikning III og‘irlilik darajasi mavjud, ya’ni ikkinchi guruh bemorlarda Tiffno indeksi bilan O‘ASB va o‘pka arteriyasi ichki bosimi o‘rtasida mos ravishda $r = -0,39$; $P < 0,01$ va $r = -0,6$; $P < 0,001$ manfiy korrelyatsion bog‘liqlik aniqlandi.

Xulosa. O‘pkaning surunkali obstruktiv kasalligi o‘pka gipertenziysi bilan kechganda tashqi nafas faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri Tiffno indeksi bilan o‘pka arteriyasidagi sistolik bosim o‘rtasida kasallikning II va III og‘irlilik darajalarida mos ravishda $r = -0,3$, $P < 0,05$; $r = -0,39$, $P < 0,01$; manfiy korrelyatsion bog‘liqlik mavjudligi tashqi nafas faoliyatining susayishi o‘pka gipertenziya rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.